




## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-avgust)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020-yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2831,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 230,0 mln. AQSh dollariga yoki 7,5 % ga kamaydi.


Mamlakatimizda ko'pchilik faoliyat sohalari to'xtab qolganligi inobatga olinib, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 1023,5 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati –83,6 %) va import hajmi 1807,5 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 98,4 %) yetdi. Hisobot davrida 784,0 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2019-yil yanvar-avgustga nisbatan, % da)





## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Rossiya	658,1	156,2	501,9	23,2
Xitoy	510,7	184,0	326,7	18,0
Qozog'iston	455,2	106,7	348,5	16,1
Turkiya	344,6	278,9	65,7	12,2
Koreya Respublikasi	148,8	6,8	141,9	5,3
B.A.A	64,7	64,0	0,7	2,3
Afg'oniston	60,0	60,0	0,0	2,1
Tojikiston	56,5	35,8	20,8	2,0
Germaniya	51,1	1,3	49,8	1,8
Latviya	49,3	0,2	49,1	1,7
Qirg'iziston Respublikasi	39,5	22,4	17,1	1,4
Ukraina	34,0	19,3	14,6	1,2
Italiya	31,3	2,5	28,8	1,1
Litva	28,7	0,2	28,4	1,0
Belarus	25,9	8,6	17,3	0,9
Braziliya	23,2	0,0	23,2	0,8
Niderlandiya	21,9	12,4	9,4	0,8
Ozarbayjon	19,8	8,2	11,6	0,7
Irlandiya	17,6	0,0	17,6	0,6
Malayziya	15,9	1,8	14,1	0,6



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,1 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 96,1 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-avgust oylarida 55,6 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,9 % ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,4 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA  
BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI  
(2020-yil yanvar-avgust, % hisobida)**






## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020 yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston, Qirg‘iziston va Ukraina bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Afg‘oniston bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-avgust)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020-yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan 1023,5 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan 83,6 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (68,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,8 %), turli xil tayyor buyumlar (7,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (5,3 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,4 %) shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,0 %) guruhlarini hissasiga to'g'ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-avgust)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>1023,5</b>	<b>372,0</b>	<b>651,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
<b>oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	130,5	93,5	37,0	12,8	25,1	5,7
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	1,5	1,3	0,2	0,1	0,33	0,03
<b>Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)</b>	53,8	24,4	29,4	5,3	6,6	4,5
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	2,3	0,2	2,1	0,2	0,05	0,3
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>	34,5	26,3	8,2	3,4	7,1	1,3
<b>Sanoat tovarlari</b>	697,2	139,9	557,3	68,1	37,8	85,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>	20,0	10,8	9,2	2,0	2,9	1,4
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	77,1	74,7	2,4	7,5	20,1	0,4
<b>Xizmatlar</b>	6,6	0,9	5,7	0,6	0,02	0,9





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA  
XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI  
(2020-yil yanvar-avgust)**

2020-yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta’kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>83,6</b>	<b>92,1</b>	<b>79,4</b>

shu jumladan:

<b>oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>116,7</b>	<b>107,5</b>	<b>148,9</b>
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>64,4</b>	<b>59,1</b>	<b>152,3</b>
<b>Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)</b>	<b>31,9</b>	<b>55,2</b>	<b>23,6</b>
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>-</b>
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>185,7</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>131,8</b>
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>84,1</b>	<b>73,0</b>	<b>87,4</b>
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>	<b>63,9</b>	<b>78,0</b>	<b>52,8</b>
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>144,2</b>	<b>146,7</b>	<b>94,5</b>
<b>Xizmatlar</b>	<b>75,5</b>	<b>44,1</b>	<b>84,6</b>






## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-avgust)

Asosiy hamkor davlatlar

Ulushi 86,5 %

Boshqa hamkor davlatlar

Ulushi 13,5 %





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 96,7 mln. dollar qiymat ega 175,4 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 3,7 % kamaygan, naturada – 91,5 % ga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 43,5 mln. AQSh dollariga teng 113,7 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 14,0 % ga kamaygan) shuningdek 39,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 41,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 25,1 % ga o'sgan).

### 2020-yil yanvar avgust, mln. AQSh dollari

				
<b>Meva va rezavorlar</b> 41,7 ming tonna 39,8 mln. AQSH dollari	<b>Uzum</b> 11,8 ming tonna 10,8 mln. AQSH dollari	<b>Qovun va tarvuzlar</b> 7,8 ming tonna 2,1 mln. AQSH dollari	<b>Yeryong'og'lar</b> 0,4 ming tonna 0,5 mln. AQSH dollari	<b>Sabzavotlar</b> 113,7 ming tonna 43,5 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-avgust oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 83,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 8,1 % ni tashkil qiladi.




## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-avgust)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-avgustoylari mobaynida import hajmi 1807,5 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,4 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (32,1 %), sanoat tovarlari (18,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-avgust)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1807,5</b>	<b>934,0</b>	<b>873,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	236,0	187,6	48,4	13,1	20,1	5,5
Ichimliklar va tamaki	3,3	3,0	0,3	0,2	0,3	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	267,3	235,8	31,5	14,8	25,2	3,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	69,0	68,4	0,6	3,8	7,3	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	55,0	41,4	13,6	3,0	4,4	1,6
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	127,8	35,2	92,6	7,1	3,8	10,6
Sanoat tovarlari	330,8	211,9	118,9	18,3	22,7	13,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	579,9	117,8	462,1	32,1	12,6	52,9
Turli xil tayyor buyumlar	84,4	15,1	69,3	4,7	1,6	7,9
Boshqa turdagi tovarlar	20,4	8,0	12,4	1,1	0,9	1,4
Xizmatlar	33,6	9,8	23,8	1,8	1,1	2,8

Importning eng katta ulushi, jumladan, nooziq-ovqat xom-ashyosi (25,2 %), sanoat tovarlari (22,7 %), shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,1 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (52,9 %) hissasiga to'g'ri keladi.




## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-avgust, % hisobida )

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>98,4</b>	<b>97,8</b>	<b>99,0</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	90,6	129,6	41,8
Ichimliklar va tamaki	2 m.	2,2 m.	114,7
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	73,4	67,5	2,1 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	3,5 m.	3,7 m.	49,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	101,5	103,5	95,8
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	104,1	90,6	110,3
Sanoat tovarlari	87,3	77,7	111,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	105,6	164,1	96,8
Turli xil tayyor buyumlar	158,0	152,5	159,2
Boshqa turdagi tovarlar	193,2	3,8 m.	146,2
Xizmatlar	154,7	176,4	147,2





## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-avgust)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1483,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 82,1 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:(71) 202-86-59